



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO
HAMKORLIK MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari**



**2023-yil
19-oktabr**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI”**

**mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari**

2023-yil 19-oktabr

Toshkent – 2023

Yo'lchi qizga tomon yaqin egildi va ko'zlariga tikildi va titroq lablari bilan bazo'r dedi:

– Shundaymi-a? Men uchun keldingizmi?

– Yolg'iz sizni deb...

Yo'lchi qizning qo'llarini mahkam siqdi. Nuri o'z boshini uning yelkasiga sekingina tashladi... Yigitning qo'llari qizining bellariga chirmashdi, ko'kraklari bir-biriga qapishdi. Oy. Nozik jimjitlik. Salqin shamollargina qizning sochlari bilan o'ynashadi...(Oybek, Qutlug' qon)

Hayotda ijtimoiy holat, yashash sharoiti shaxs sotsial belgilarini ifodalovchi eng asosiy faktorlardandir. Men bir xizmatkorlaring bo'lsam...degan Yo'lchining gapi orqali Nuri bilan ijtimoiy tabaqasi nomuvofiqligiga ishora bor. Qizning ...nima qilibdi, xizmatkor odam emasmi? Siz qarindoshimiz. Siz qanday yaxshisiz... lisoniy vositasi bilan muhabbat kishi tanlamasligi, sof tuyg'ular moddiy ahvolga qaramasligi ifoda etilgan. Bu lisoniy vosita bilan ...sovuqdanmi, yo hayojondanmi, Nuri titrab gapirdi... noverbal vosita hamkorlik kasb etib, bir-birini to'ldirishga xizmat qilgan. Nurining bu xatti-harakatlari yana quyidagi lisoniy vositalar bilan to'ldirilgan: Sizni deb bu yerga keldim, Yo'lchi aka. Bu yerda ekanligizni eshitib, ko'zimga xech nima ko'rinmadi, uchib bora qolsam, dedim. Bu yerda uchto'rt kundan buyon kunduzi ham, kechasi ham es-hushim sizda.

Yo'lchi qizning qo'llarini mahkam siqdi. Nuri o'z boshini uning yelkasiga sekingina tashladi...noverbal harakatlari orqali bir-biriga bo'lgan iliq munosabatlari aks etgan. Shaxsning tuyg'ulari noverbal vositalar yordamida aniqroq, ta'sirchanroq reallashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007.
2. Эрназарова М.С. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: Фил.фанлари доктори (DSc) дисс... – Самарқанд, 2018. – 242 б.
3. Багдасарова Н.А. Невербальные формы выражения эмоций в контексте разных культур: универсальное и национальное // <https://mgimo.ru/files/35232/35232.pdf>
4. Иброҳимов С. Касб-хунар терминларининг адабий тил лексикасида тутган ўрни ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1961. – №3.
5. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007.
6. Маъруфов А. ва бошқ. “Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси” (С. Иброҳимовнинг шу номдаги монографияси ҳақида) // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1961. – №1. – Б.71-73.
7. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент, 1957.

PERSONAJ LISONIY SHAXSI

CHARACTER IS A LINGUISTIC ENTITY

Marhabo Umurzoqova*

***Annotatsiya.** Maqolada personaj lisoniy shaxsining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Badiiy asarda personajning lisoniy shaxs sifatida shakllanishida shakl va mazmun mutanosibligi, ixcham shakl orqali ko'p ma'no berish imkoniyatlari, til egalari xotirasida yorqin lisoniy shaxs sifatida saqlanuvchi personaj lisoniy shaxsning voqelanishida yozuvchining mahorati asosiy omil ekanligi tahlillar asosida ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** personaj lisoniy shaxsi, emotsional leksika, morfologik shakl, sintaktik birlik, sintaktik qolip, indikator, ijtimoiy mavqe, ijtimoiy rol.*

* Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. **E-pochta:** umurzakovamarkhabo@gmail.com

Abstract: *The article talks about the specific features of the character's linguistic personality. In the formation of a character as a linguistic person in a work of art, it has been revealed that the balance of form and content, the possibilities of giving multiple meanings through a compact form, and the skill of the writer is the main factor in the realization of a linguistic person in the memory of language speakers.*

Key words: *character linguistic personality, emotional lexicon, morphological form, syntactic unit, syntactic pattern, indicator, social status, social role.*

Matn tilning ifoda imkoniyatlarini o'ziga xos tarzda namoyon qiluvchi butunlikdir. Badiiy matnda tilning imkoniyatlari matn yaratuvchisining lisoniy qobiliyatlari, sezgirligi, kuzatuvchanligi, pragmatik maqsadning yuzaga chiqishida pragmatik taktikani to'g'ri tanlay olishi, personajning ijtimoiy mavqeyi va roldan kelib chiqib uni lisoniy shaxs sifatida aks ettira olishi bilan belgilanadi. "Odam bor ekan, uning takomil-u taraqqiyoti muntazam ekan, til ilmi ham intiho bilmaydi, til tilsimi huzuridagi hayrat esa, ayniqsa, tilshunosni g'ayrat va harakatga chorlab turaveradi" [Mahmudov N., 2017: 3]. Har bir badiiy matn tadqiqi tilshunosdan g'ayratga va harakatga undaydi. Yozuvchi va personaj lisoniy shaxsi orqali kitobxon voqelikni qabul qiladi, baholaydi. Badiiy matnda personajlar nutqi turli lisoniy shaxslar haqidagi tasavvurlarni berishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Personajlar nutqining o'ziga xosligini ta'minlashda yozuvchining mahorati asosiy omil sanaladi. Badiiy matn, eng avvalo, so'zlovchi ruhiy holatini so'z vositasida tasvirlaydigan manbadir.

Lingvopersonologiya so'zlovchining turli ruhiy holatidagi nutqining o'ziga xos xususiyatlari tadqiqini ham o'rganadi. "Til isoniy his-tuyg'ularni ifodalashning eng samarali usullaridan biridir. U shunday xususiyatga ega bo'lganligi uchun ham o'quvchining his-tuyg'ularini "boshqara oladi" – uning qalbida turli kechinmalar, hissiyotlarni paydo qiladi" [Xudoyberganova, 2013: 63]. Yozuvchining mahorati turli his-tuyg'ularga ega, dunyoqarashi rang-barang, olamni o'zicha angelaydigan hamda baholaydigan turli toifadagi shaxslarni lisoniy shaxs darajasida ko'rsatib bera olishida ko'rinadi. Shunday asarlar borki, asar davomida bir kichik epizodda qatnashib, birgina jumla bilan kitobxonning yodida qoladi. Shu o'rinda A.Qahhorning "Bemor" hikoyasidagi onasining dardiga chuchuk tili bilan shifo so'ragan qizcha lisoniy shaxsini keltirish mumkin. Yozuvchining mahorati bilan lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lgan personaj kitobxonda achinish hisini paydo qiladi. Yozuvchining tildan foydalanish mahorati qahramonlarining lisoniy shaxshini shakllantira olishida, ularning o'ziga xosligini ko'rsatib bera olishida ko'rinadi. Zero, badiiy matn "Insonni ruhan to'lqinlantirish, yig'latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o'yg'a cho'mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nigoh bilan boqishga o'rgatish kabi imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan bo'ladi"[Yo'ldoshev, 2009: 104].

Personajlarning hissiyotlarini til vositasida ifoda etish bir muncha murakkab jarayondir. Bunda yozuvchi turli verbal va noverbal vositalardan foydalanadi. Qo'llaydigan so'zlarining semantikasiga alohida e'tibor beradi, o'zbek tilining ifoda imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Tadqiqotchi D. Niyazova hissiyot ifodasi berilgan mikromatnlar badiiy asarlarda turli holatlar vositasida yuzaga kelishini ta'kidlaydi hamda ularni quyidagicha tasniflaydi: "1. Asar personajining kechinmalari uning nutqidan anglashiladi. 2. Personajning ruhiy holati asar muallifi nutqi vositasida beriladi. Bunda muallif quyidagi usullardan foydalanadi: a) personajning ruhiy holatini bevosita bayon qiladi; b) personajning jismoniy xatti-harakatlarini tasvirlash orqali uning ruhiy holatiga ishora qiladi; v) tabiat tasviri orqali personajning ruhiy holatiga ishora qiladi" [Niyazova, 2020]

Ma'lumki, rus tilshunos olimi Y.N.Karaulov ilk bor badiiy asar personajlarini lisoniy shaxs sifatida o'rganishni boshlab berdi [Karaulov, 2010]. Mazkur asarda Y.N. Karaulov Tolstoyning "Urush va tinchlik" asaridagi eng yaramas obrazni yaxshi ko'rib qolgan, buning uchun otasidan gap eshitgan I.L.Andronnikovning xotirasini eslatadi. Bu voqeda kitobxon yaramas odam Kuraginni emas, yozuvchi tomonidan yaratilgan shaxsni yaxshi ko'rib qolganligi keyinchalik otasi tomonidan tushuniladi [Karaulov, 2010; 68].

Lisoniy shaxs tushunchasi tilshunoslikda paydo bo'lgan davrdan boshlab bu borada qator ishlar amalga oshirildi. Tilshunoslikda badiiy diskursda lisoniy shaxs tiplarini aniqlashga doir alohida tadqiqotlar ham yuzaga keldi. Bu tadqiqotlarda u yoki bu ijodkorning asarlari misolida lisoniy shaxs tiplarini yaratishdagi mahorati tadqiq qilindi. Badiiy matnda muallif hikoyachi va personaj nutqini ajratish muhim sanaladi. Karaulov muallif hikoyachi nutqidan personaj nutqiga o'tishning bir usuli sifatida kirish so'zlardan foydalanishni tahlillar asosida ko'rsatib bergan [Karaulov, 2010: 73]. Haqiqatdan ham badiiy asarda muallif hikoyachi nutqi va personaj nutqida lisoniy shaxsning yaqqol ajralib turishi muhim sanaladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, lisoniy shaxsning namoyon bo'lishi bu bevosita yozuvchining mahorati natijasi sifatida yuzaga chiqadi. Tilshunoslikda lisoniy shaxs tiplari haqidagi tadqiqotlar ko'proq qiyosiy aspektda amalga oshirilganligini ta'kidlab o'tish zarur. Amalga oshirilayotgan ishlarda lisoniy shaxs tiplari nutq egalarining gender belgisi, ijtimoiy mavqeyi, xarakter-xususiyati, kasb-kori, mashg'uloti, yoshi, qaysi dialektga mansubligi, nutqiy muloqotda qanday pozitsiya egallaganligi, nutq ishtirokchilariga kommunikativ ta'sir ko'rsatish usuli kabi qator mezonlar asosida ajratilib, turli aspektlarda o'rganilmoqda. Personaj lisoniy shaxsining strukturasi uning o'z me'yorlariga, tartiblariga, nutq tuzish an'analari ega nutqida namoyon bo'ladi. Bu ijtimoiy, emotsional, psixologik va boshqa omillar ta'sirida yuzaga keladi. Lisoniy shaxsni shakllantirishda yozuvchining til imkoniyatlari bo'y ko'rsatadi. Badiiy asardagi har qanday personaj ham lisoniy shaxs darajasida bo'lmasligi mumkin. Ko'p hollarda yozuvchilar personajlarni lisoniy shaxs darajasida kitobxonga taqdim eta olmaydilar. Qahramon nutqi badiiy matnda ikki xil ko'rinishda: tashqi va ichki nutq ko'rinishida bo'ladi. Quyida "Muvozanat" romanida hayotda ezilgan, og'ir kasalga chalingan kelin – Gulshoda lisoniy shaxsini ifodalashda yozuvchi ichki nutqdan foydalangan: *Voy sho'rim, men nimalar qilyapman o'zi? Bolalarimni kimga tashlab ketyapman?* ("Muvozanat", 254-bet). E'tibor berilsa, qo'llanilgan leksik birliklar, nutqning ritorik so'roq gap tarzida qurilishi hayotdan qiynalgan jabrdiyda ayol shaxsini shakllantirishda xizmat qilganligini ko'rishimiz mumkin. *Voy sho'rim* birikmasi so'zlovchining ayol jinsiga mansubligini ko'rsatuvchi indikator hisoblanadi. Yozuvchi hikoyalarida personajlarning, xususan, ayol jinsiga mansub personajlarining pragmatik maqsadiga mos lisoniy birliklardan foydalanadi [Umurzakova, 2021].

Personaj nutqidagi o'ziga xoslikni aniqlashda personajning lug'at boyligi, qaysi til birligidan ko'p foydalanishi ("Shum bola" qissasidagi Sariboy nutqidagi *innakeyin*), nutqda uslubiy jihatdan xoslangan leksik birliklarning qo'llanilishi (A.Qahorning "Notiq" hikoyasi), turli ijtimoiy qatlamga mansublik (A.Qahorning "O'g'ri" hikoyasi), gap qurilishidagi o'ziga xoslik (Sh.Xolmirzayev hikoyalaridagi parsellativ qurilmalar, T.Murod asarlaridagi sintaktik parallelizm) muhim sanaladi.

Albatta, bu belgilar nutqning individualligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nutqda so'zlovchining voqelikka munosabati, ruhiy kechinmalari tasviri ham uning nutqini individuallashtirishga olib keladi. Yozma shaklda bayon etilgan quyidagi matnda nutqning yakka shaxsga xos individual xususiyatlari namoyon bo'lgan:

Ichizga jin kirgan sizzi! Haydadim, Lokin ula ja-a ko'pakan, ja-a ko'p! Ozg'inrog'lari qamchimmi zarbidan chiqip qochdi, semizrog'i chiqmadi. Ulani keyingi kunlarda haydiymiz. Ja-a ichkarilaga bekinib oganlari, eski, ayor jinlayam borakan. Ulani nima qilamiz, opovsi? (U. Hamdam "Ota"). Keltirilgan ushbu matnda Toshkent shevasi vakili bo'lgan folbin erkakning lisoniy shaxs sifatidagi ifodasi keltirilgan. Uning nutqida ishlatilgan *jin, qamchi* otlari, *haydamoq* fe'li uning shug'ullanadigan ishi bilan bog'liq tushunchalarni ifodalasa, tushum kelishigi va ko'plik qo'shimchasining fonetik o'zgarishga uchragan shaklda qo'llanilishi hududiy jihatdan xoslangan belgilarini ifodalashda xizmat qilgan.

Badiiy matn til imkoniyatlaridan unumli foydalana oladigan yozuvchining ijod mahsuli sifatida rang-barang individual lisoniy shaxs tiplarini yuzaga chiqaradigan manbadir. Ayniqsa, badiiy asarda qo'llanuvchi okkazonal birliklar, noodatiy birikmalar, kognitiv metaforalar, o'ziga xos sintaktik qurilish xarakter yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bunda ijodkorning til vositalaridan foydalanish mahorati, avval ham qayd etib o'tganimizdek, muhim o'rin tutadi.

Asarda qo‘llangan bunday birliklar nutq egasi (yozuvchi, muallif-hikoyachi, personajlar)ning hunari, mashg‘uloti, qiziqishlari, millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqeyi, milliy-madaniy, diniy qarashlari, voqelikka munosabati kabilarga ishora qilib turadi. Nutq egalariining olamni qay tarzda idrok etishini ham ko‘rsatishda shaxs xususiyatlariga ishora qiluvchi indikatorlarning qo‘llanishi muhim ahamiyatga ega. – *Sen bizga xiyonat qilding‘, it uvli!, Tuzimni unutding‘, Iqrorsen, tonmaysen, o‘bdan ish, o‘ludan ham qaytmaysen! Pusulmonchiliq qig‘ansan-da?* (A.Qodiriy). Keltirilgan misollardan adresantning adresatdan ijtimoiy mavqeyi yuqori ekanligi *tuz* leksemasi, adresatning diniy mansubligi *pusulmonchiliq* leksemalari vositasida berilgan. So‘zlovchi lisoniy shaxsining namoyon bo‘lishida bu o‘rinda fonetik birliklarning ham o‘rni bor. Qipchoq lahjasiga mansub kishi lisoniy shaxsini shakllantirishda yozuvchi *ng* tovushining orqa qator *ng‘* shaklidan foydalangan. Adabiy tildagi xiyonat leksemasining *xiyonat*, o‘gli leksemasining *uvli*, qilgansan fe‘lining *qig‘ansan* shaklida qo‘llanilganligi uning o‘ziga xos nutqini shakllantirgan.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarda qahramon lisoniy shaxsini shakllantirishdan personaj lisoniy shaxsini shakllantirish murakkabroq sanaladi. Yozuvchi asarning bir-ikki o‘rnidagigina namoyon bo‘ladigan personajning lisoniy shaxs sifatida shakllantirishda uning xarakterini, ruhiyatini, o‘y-kechinmalarini ochib bera oladigan til birliklarini tanlay olishi, uni mahorat bilan qo‘llay olishi kerak. Ana shunda badiiy asardagi qahramon hikoyachi nutqi va personaj nutqi ajralib turadi. Shu o‘rinda personaj lisoniy shaxsini shakllantirishda tinish belgilarining ham o‘rni borligiga e‘tibor qaratish lozim. Personajning kuchli hayajoni, qo‘rquvi kabilarni ifodalashda ko‘p nuqta, undov belgisi muhim vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи. Филол.фан.док.дисс. – Тошкент, 2009.
2. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Издательство ЛКИ. 2010 – 264 с.
3. Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – 176 б.
3. Niyazova D. Badiiy matnda lisoniy shaxs tiplari. Fil. fan. bo‘yicha falsafa dok. diss. – Qarshi, 2020.
4. Umurzakova M. Types of linguistic personality in the literary text (on the example of Ulugbek hamdam's stories) Asian Journal of Multidimensional Research.ISSN:2278-4853. Vol 10, Issue 5, May, 2021. P.591-595
5. Umurzakova M The age factor in the formation of a linguistic personality. January 2022 [Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities](#) 12(5):465-468 DOI:[10.5958/2249-7315.2022.00324.0](#)
6. Худойберганова Д. Матнинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.

LINGUISTIC COUNTRY ASPECT IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE

ЛИНГВОСТРАНОВЕДЧЕСКИЙ АСПЕКТ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Алимсаидова Сайёра*

Аннотация: В данной статье раскрываются вопросы связи языка и культуры, лежащие в основе лингвострановедения. Проанализированы характерные особенности в преподавании неродного языка, где должны быть выявлены соответствующие

* Доцент. Кокандский государственный педагогический институт имени Мукуми.